

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.H.Axmedova

Ingliz nasrida viktoriyan davri ahamiyati 210

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi 213

TILSHUNOSLIK**Sh.A.Aliyeva**

Matn maqomidagi grafema va semantik derivatsiya 216

M.S.Ishanjanova

Lingvokultural kodlarning mazmuniy tizimi 220

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Professor A.Mamajonovning o'zbek xalq maqollaridan foydalanish mahorati 224

R.A.Achilova

Ingliz tilidagi allyuziyalarning lingvolturologik tadqiqi 228

M.A.Mo'minova

"Til portfellari" integrativ texnologiyasi (ingliz tili misolida) 231

N.N.RadjabovIngliz va o'zbek tillarida undoshlarning fonetik va grafemik xususiyatlarida izomorfizm
va allomorfizm 235**M.X.Hakimov**

Nutqiy akt va intonatsiya 242

G.A.Musayeva

Oziq-ovqat texnologiyasi darslarida Wiki texnologiyasi asosida yozma nutqni o'qitish 246

U.B.Usmonova

Tilshunoslikda publisistik matn tadqiqiga yangicha qarash 251

Z.S.Tashtemirova, N.M.Izbayeva

Ko'p tillilik tushunchasi haqida 254

F.Sh.Alimov, R.A.Faxriddinova

Raqamlashtirish sharoitida yozma nutqni shakllantirishning lingvistik omillari 259

A.L.Melikuziev

Nolisoniy semiotik sistema va uning elementlari 265

FANIMIZ FIDOYILARI

АКАДЕМИК МАХМУД САЛАХИТДИНОВИЧ САЛАХИТДИНОВ 269

NUTQIY AKT VA INTONATSIYA**РЕЧЕВЫЕ АКТЫ И ИНТОНАЦИЯ****SPEECH ACTS AND INTONATION*****1Hakimov Muhammad Xo'jaxonovich******1Farg'onan davlat universiteti, tilshunoslik kafedrasи professori, f.f.d.******Annotatsiya***

Mazkur maqolada tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo'lgan pragmalingvistika xususida bahs yuritilgan. Shuningdek, pragmalingvistikating asosiy yo'naliishlaridan biri bo'lgan nutqiy aktlar, ularni hosil qiluvchi vositalar hisobga olingan. Tadqiqotning nazariy asoslari va metodlari haqida atroflichcha ma'lumot berilgan. Ishda umumnazariy metod sifatida qiyoslash, zidlash, semantik va pragmatik tahlil, umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan. Nutqiy aktlarni hosil qiluvchi usul va vositalar orasida intonatsiya ham mavjudligi e'tiborga olingan. Nutqiy akt turlari badiiy adabiyotdan olingan lisoniy dalillar yordamida aniq ko'rsatilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается одна из новых областей языкоznания – прагмалингвистика. Также учитываются речевые акты, являющиеся одним из основных направлений прагмалингвистики, и инструменты, их создающие. Подробно даны сведения о теоретических основах и методах исследования. В качестве общетеоретического метода в работе использованы методы сравнения, противопоставления, семантического и прагматического анализа, обобщения. Было отмечено, что интонация относится к числу способов и средств создания речевых актов. Виды речевых актов четко обозначаются с помощью лингвистических данных, взятых из художественной литературы.

Abstract

This article examines one of the new areas of linguistics – pragmalinguistics. Speech acts, which are one of the main areas of pragmalinguistics, and the tools that create them, are also taken into account. Information about the theoretical foundations and research methods is provided in detail. As a general theoretical method, the work uses methods of comparison, contrast, semantic and pragmatic analysis, and generalization. It was noted that intonation is one of the ways and means of creating speech acts. The types of speech acts are clearly indicated using linguistic data taken from fiction.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, nutqiy akt turlari, lokutiv akt, illokutiv akt, perllokutiv akt, intonatsiya.

Ключевые слова: речевой акт, виды речевого акта, локутивный акт, иллокутивный акт, перлокутивный акт, интонация.

Key words: speech act, types of speech act, locutionary act, illocutionary act, perlocutionary act, intonation.

KIRISH

Bizga ma'lumki, pragmatika grekcha "pragmatos" so'zidan olingan bo'lib, ish, harakat ma'nolarini ifodalaydi. Fonetik birliklar pragmatikasi tadqiqida ikki asosiy masalaga e'tibor qaratish zarur. Birinchidan, segment va supersegment birliklarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash amaliy xarakterga ega bo'lib, ularni tadqiq etishda vizual eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish ehtiyoji kundan-kunga ortib bormoqda. Ikkinchidan, amaliy izlanishlar natijasida olingan ilmiy xulosalarni matematik metodlar yordamida tahlil va tasnif qilish orqali fonetik birliklar pragmatikasiga oid mavjud nazariy qarashlarni asoslash imkonli tug'iladi. Shuningdek, muloqot jarayonida so'zlashuvchilar lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalanib o'zaro bir-birlarini anglaydilar. Nutqning hosil bo'llish jarayonida bu vositalar nutq hodisasi sifatida turlicha shakllar orqali rang-barang ma'no nozikliklarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ma'noning bunday tovlanishlari natijasida fonetik va prosodik vositalar yordamida so'zlashuvchilarning aytيلayotgan fikrga, obyektiv olam elementlariga munosabatlari ifodalanadi. Bu munosabat fonetik-prosodik birliklarning pragmatik xususiyatlarini tashkil qiladi.

ISHNING NAZARIY ASOSI VA TADQIQ METODLARI

D.Lens [7], Sh.Safarov [1], M.Hakimov[5], D.Niyozov [3], M.Qurbanova[2] kabi tilshunoslarning asarlari mazkur tadqiqotning yuzaga kelishida nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Ishda umumnazariy metod sifatida qiyoslash, zidlash, semantik va pragmatik tahlil, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Dunyo tilshunosligida ro'y berayotgan yangiliklar, yangi nazariyalar va hodisalar haqidagi yangiliklar "Новое в зарубежной лингвистике" nomli muntazam ravishda nashr qilinadigan to'plamda o'z ifodasini topadi. Ushbu to'plamning XVII tomi nutqiy akt nazariyasi masalalariga bag'ishlanganligi bilan xarakterlidir[4]. O'zbek tilshunosligida pragmatikaning asosiy va markaziy muammolari sifatida nutqiy akt nazariyasi, ular haqidagi dastlabki tushunchalar, qarashlar, nutqiy aktlar tasnifi, nutqiy akt turlari kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. M.Hakimovning dissertatsion tadqiqoti[5]da ham, Sh.Safarovning monografiyasi[1]da ham nutqiy akt masalasi batafsil tadqiq etilgan. M.Qurbanova "O'zbek bolalar nutqining pragmalingvistik aspekti" nomli monografiyasida nutqiy akt nazariyasi, uning turlari, shuningdek, nutqiy aktni hosil qiluvchi verbal va noverbal vositalarni aytilib o'tadi. Uning qarashlarida "... nutqiy aktida xabar, so'roq, buyruq, izoh berish, kechirim so'rash, tashakkur bildirish, tabrik ifodalash kabi turli nutqiy harakatlar amalga oshiriladi" [2, 9] deb ta'kidlanadi. Shuningdek, olma bolalar kommunikativ faoliyatida ko'p uchraydigan nutqiy akt ko'rinishlarini semantik jihatdan "...xabar, so'roq, iltimos, buyruq, undash, kechirim, va'da, istak, talab, taklif, rad etish, orzu-havas, minnatdorchilik, ogohlantirish nutqiy aktlari" [2, 32] kabi turlarga ajratadi.

"Nutqiy akt so'zlovchining muayyan kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgani bois uning turli ko'rinishlari farqlanadi. Xususan, buyruqni ifoda etuvchi nutq ko'rinishi buyruq nutqiy aktini, so'roqni ifoda etuvchi nutq parchasi so'roq nutqiy aktini, istakni ifodalovchi nutq ko'rinishi istak nutqiy aktini hosil qiladi. Manbalarda nutqiy aktning xabar qilish, istakni bayon etishga qaratilgan nutqiy akt, majburiyat akti, ijtimoiy etiket ko'rinishlari, emotsiyonallikni ifodalovchi aktlar, ma'qullovlari, ta'qiqlovchi, nutqni to'xtatuvchi akt kabi turlari qayd etiladi" [2, 15] deb e'tirof etiladi. Bu o'rinda nutqiy akt turlari gapning kommunikativ tiplariga mos ravishda ajratilishi, bizningcha, maqsadga muvofiqdir. Xususan, buyruqni ifoda etuvchi nutq ko'rinishi buyruq gap intonatsiyasi orqali buyruq nutqiy aktini, so'roqni ifoda etuvchi nutq parchasi so'roq gap intonatsiyasi orqali so'roq nutqiy aktini, istakni ifodalovchi nutq ko'rinishi esa istak gap intonatsiyasi orqali istak nutqiy aktini hosil qiladi. Shu o'rinda darak gaplar intonatsiyasi bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borgan D.Niyozov[3, 64-65] ifodaning darak ko'rinishining "sof darak, xabar, e'lon, tasdiq javob, inkor javob, darakda sanash, nomlash, luqma" kabi sakkiz turini ajratadi. Demak, nutqiy akt turlarini ajratishda ham gapning kommunikativ tiplari va ularning ichki kichik turlari asos bo'ladi. Bu esa intonatsiya nutqiy aktlarni ifodalovchi asosiy fonetik vosita ekanligi ko'rsatadi.

Xorijiy va o'zbek tilshunosligida nutqiy aktlar masalasiga doir amalga oshirilgan tadqiqotlarda ularning tavsifi, turlari haqida fikrlar berish bilan cheklaniladi. Nutqiy aktni ifodalovchi vositalar, nutqiy aktning gap kommunikativ tiplarini hosil qilishdagi funksiyalari, intonatsion va leksik vositalar orqali ifodalananidan ma'nolarning o'ziga xos jihatlari va funksional xususiyatlari haqida to'xtalinmaydi. Bizning nazarmizda, nutqiy aktlar guruhiiga xabar, buyruq, so'roq, ta'kid, e'tirof, tahdid, mazax, minnatdorlik, iltimos kabi qator mazmunlar daxldor bo'ladi. Nutqiy aktlar nutq jarayonining mahsuli ekanligi bilan xarakterlidir. Intonatsiya va uning komponentlari nutqiy aktlarni ifodalovchi vositalar sanaladi. Shu nuqtai nazardan ishning ushbu bobida intonaqon vositalar orqali nutqiy aktlarning hosil qilinishi, nutqiy akt turlari va ularning differensial belgilarni eksperimental-fonetik usul bilan o'rganish nazarda tutilgan.

Pragmalingvistikaga taalluqli mavjud ishlarda nutqiy aktning lokutiv, illokutiv va perlokutiv turlari ajratiladi[4; 5; 1]. Nutqiy aktlar masalasi til va nutq paradigmalari tizimida nutq hodisalarini strukturasiga daxldorligi bilan ajralib turadi. Nutqiy aktlar sintaktik sathning kommunikativ birligi hisoblangan jumlaning komponentlari sanaladi. Shuning uchun ham nutqiy aktlar tahlili va tadqiqida jumlaning propozitsion strukturasi muhim o'rinn tutadi. Propozitsiya jumla orqali ifodalangan asosiy axborot hisoblansa, nutqiy akt intonatsiya orqali namoyon bo'ladi, uning mazmuniy strukturasi buyruq, so'roq, darak kabi gap tiplarida namoyon bo'ladi. Bunda intonatsiya nutqiy aktni ifodalovchi fonetik vosita sanalib, odatda gapning ifoda maqsadiga ko'ra tiplarini belgilash uchun xizmat qiladi. Nutqiy akt turlari tasnifini ularning xususiyatlarini tahlil qilish orqali tushuntirish mumkin. Jumladan, lokutiv akt (inglizcha "locution" – talaffuzni maqsadga yo'naltirish[6, 412]) nutqning fonetik-artikulyatsion bosqichiga daxldor bo'lib, so'zlashuvchilar lisoniy birliklar talaffuzi orqali artikulyatsiya bosqichida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni talaffuz qila boshlaydilar. Shuning uchun ham lokutiv akt fonetik-prosodik sathga mansub hodisa hisoblanib,

nutq hosil bo'lishining dastlabki jarayoni sanaladi. Segment vositalar talaffuzidayoq so'zlashuvchilarning nutqida fonatsiya, ohang, ton, tovushlarning intensivligi, temp va pauza kabilar hisobga olinadi. So'zlashuvchilarning kommunikativ niyati, nutq vaziyati va kontekstga muvofiq tarzda segment birliklarni talaffuz qilish lokutiv akt deb yuritiladi.

Lokutiv akt bosqichida nutq elementlari talaffuzi va artikulyatsiyasi yana kichik qismlarga bo'linadi. Ilmiy adabiyotlarda "Lokutiv aktni ichki farqlanish belgisiga ko'ra uch guruhgaga ajratiladi: fonetik, fatik va retik aktdir. Tovushlar talaffuzi fonetik akt, vokabula yoki so'z tarkibidagi tovushlarning birikish qoidalari bilan bog'liq talaffuz fatik akt, so'zlarni aniq ma'no va referensiya bilan ta'minlash retik aktdir... Lokutiv akt uchun (ta'kid bizniki) nafaqat lug'at va grammatika, balki intonatsiya ham muhimdir" [4, 84-85; 5, 122]. Shuning uchun ham noma'lum tovushlar talaffuzida aksentlashish paydo bo'ladi. Bunda lokutiv aktning fonetik prinsiplari buziladi. Lokutiv akt so'zlovchi nutqida har qanday tilning odatiy ko'nikmalari asosida nutq tovushlarining talaffuz qilinishidir. Tilga xos tabiiy intonatsiya nutqning mazmuniy strukturasini to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Tilshunoslikda supersegment birliklarning pragmatik xususiyatlari o'rganish pragmalingvistika mohiyatini mukammal tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Ilmiy adabiyotlarda segment va supersegment birliklar pragmatikasiga bo'lgan ehtiyoj haqida quyidagi fikrlarni ko'rish mumkin: "Fonetik hodisalar tadqiqiga pragmatik yondashuv natijasida turli gumanitar fanlar: filosofiya, estetika, adabiyotshunoslikka kirish, psixologiya kabi fanlarga murojaat qilina boshlandi. Kompleks yondashuv natijasi matnni sistem hodisa sifatida o'rganishga imkon berdi. Bunda barcha elementlarning uzviy aloqadorligi e'tiborga olindi. Kompleks yondashuv natijasida prosodiya va sintaksis, prosodiya va leksika, segment va supersegment birlik va sathlarning o'zaro uzviy aloqadorligi o'z ifodasini topdi. Segment va supersegment fonetik vositalarning pragmatik funksiyasi tahlili pragmatikaning qator muammolarini tahlil qilishga ehtiyoj borligini ko'rsatdi" [7, 4]. Bu fikrlardan shu narsani tushunish mumkinki, pragmatik tadqiqotlar asosan nutq hodisalarini tahlil qilish bilan shug'ullanib, nutqiy faoliyat bilan bog'liq hodisalarini o'rganadi. Nutqiy muloqot jarayoni tahlilida lingvistik sath birliklarini tizimli tekshirishga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Buni supersegment birliklarning leksik, morfologik, sintaktik, stilistik sathdagi bajaradigan funksional xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Fonetik yoki prosodik vositalarning pragmatik xususiyatlari aniqlash borasida sanab o'tilgan ushbu vazifalar ishning tizimliligini belgilaydi.

Yuqorida nutqning hosil bo'lishi bilan bog'liq tarzda lokutiv aktning qator belgi va xususiyatlari ko'rsatib o'tildi. Talaffuz jarayoni, lokutiv va illokutiv aktlar chegarasini aniqlash, nutqiy jarayonda talaffuz qilinayotgan birliklarni ma'no va referensiya bilan ta'minlash kabilar lokutiv aktning asosiy funksiyalari sanaladi.

Nutqiy aktlarning strukturasida illokutiv akt alohida o'r'in tutadi. Nutqiy muloqotda illokutiv akt (inglizcha illocutionary – talaffuz qilish jarayonida kommunikativ maqsadning ifodalaniishi [6, 412]) so'zlashuvchilarning kommunikativ maqsadi va niyatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Illokutiv akt jumla tarkibidagi so'zlovchining maqsadini ko'rsatuvchi asosiy axborotlardan biri sanaladi va u intonatsiya orqali yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham illokutiv akt pragmatikaning eng muhim masalalaridan biri hisoblanib, ilmiy adabiyotlarda bu atama ifodalagan tushuncha o'rnini "kommunikativ intensiya" [7, 7] (intensional ma'no, so'zning ichki strukturasiga oid signifikativ xususiyati[8, 179]) termini bilan almashtirib, uning sinonimi sifatida qo'llash mumkin degan g'oyani ko'rish mumkin. "Kommunikativ intensiya" atamasi orqali ifodaning ichki mazmuniy strukturasida kommunikativ niyatning bayoni tushuniladi. Quyida illokutiv akt turiga misol keltirilgan bo'lib, unda so'zlovchining kommunikativ intensiyasi aks etadi va u intonatsion vositalar orqali ifodalananadi:

Qayerda o'sha qabr? – deb so'radi Haybat shoshib.

– O'g'lim, qabr ko'p bo'lsa, – dedi chaynalib (qari go'rkov), – hali zamon mayyit kelib qoladi, ishimizni tugatishimiz kerak.

"Keting!" ohangida aytilgan bu gapdan keyin Haybat bu erda ortiqcha qola olmadi. (T. Maqsud, "Iljinj". 166-bet)

Ushbu misolda "Keting!" jumlesi tarkibida yashirin tarzda ifodalangan illokutiv akt so'zlovchining tabiiy intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi. Qari go'rkov tomonidan ta'kidlangan qabrlarning ko'pligi, so'ralgan qabrni topish uchun vaqt yo'qligi, qilayotgan ishini tugatmasa, xijolatga qolishi, ishni yakunlash uchun to'siq bo'layotganligi, shuning uchun ham unga nisbatan ketish haqidagi fikrni ohang orqali ifodalashi ko'zga tashlanadi. Badiiy adabiyotdan olingen

TILSHUNOSLIK

yuqoridagi misol mazmunida intonaçiyaning komponenti bo'lgan ohang orqali ketish ma'nosi tahlil qilindi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, intonatsiya segment birliklar talaffuzi orqali amalgamoshiriladi va intonatsiyaning o'zi supersegment birlik sifatida nutqda nutqiy aktlarni ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Nutqiy aktlarning ifodalanishida lisoniy va nolisoniy vositalar ishtirok etadi, ular nutqning ta'sirchanligini, ekspressivligini ta'minlaydi. Prosodik vositalarning pragmatik xususiyatlari nutqiy aktlarning ifodalanishi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
2. Қурбонова М. Ўзбек болалари нутқининг прагмалингвистик аспекти. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.
3. Ниёзов Д. Дарак гаплар интонацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. – 5-сон. – Б. 64-67.
4. Новое в зарубежной лингвистике. Вып:17. – М.: Прогресс, 1986.
5. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001.
6. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия. 1992.
7. Ленца Д.Л., Соловьева Е.В. Фонетика в аспекте прагматики. – Кишинев: Штиинца, 1989. – С. 4.
8. Ахманова С.О. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. энциклопедия. – С. 179.